**SAMARQAND VILOYATI PAYARIQ TUMANI HOKIMINING**
**Q A R O R I**

**Payariq sh, Samarqand ko‘chasi, 52-uy.**

2023 - yil 13 - iyun 121-7-100-Q/23 Payariq tumani hokimligi

# O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 3-maydagi “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 183-sonli Qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 28-fevraldagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-27-son Farmoni, Samarqand viloyat hokimligining 2023-yil 16-maydagi 139-7-0-Q/23-sonli Qarori hamda 2022-yil 25-oktabrdagi “Jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan loyihalarni moliyalashtirish ko‘lamini kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-409-son Qarori ijrosini ta’minlash maqsadida

## Q A R O R Q I L A M A N:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 3-maydagi “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini jamoatchilik fikri asosida tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 183-sonli Qarori hamda Samarqand viloyat hokimligining 2023-yil 16-maydagi 139-7-0-Q/23-sonli Qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur Qarori bilan “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlarini jamoatchilik fikri

asosida tashabbusli byudjetlashtirish jarayonlari orqali amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Ollanov), tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (K.Narimanov) tegishli tashkilot va korxonalar bilan birgalikda tanlab olingan tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha loyiha-smeta hujjatlari asosida aniqlashtirilgan mablag‘lar miqdori hokimligi huzuridagi “Obod qishloq” va “Obod mahalla” dasturlari doirasida loyihalar to‘plamini shakllantirish, baholash hamda ularning mezonlarga mosligini muvofiqlashtirish bo‘yicha maxsus komissiya tomonidan aniqlangan dastlabki miqdordan oshib ketgan taqdirda, talab etiladigan qo‘shimcha mablag‘lar tegishli loyihalar to‘plami tarkibidagi boshqa tadbirlardan iqtisod qilingan mablag‘lar yoki “G‘olib mahalla” jamg‘armasidagi mavjud mablag‘lar hisobidan, shuningdek, Xalq deputatlari tuman Kengashi qaroriga asosan tuman mahalliy byudjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan qoplanishini ta’minlasin.

4. Tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi (A.Ashurov), “Mintaqaviy yo‘llarga buyurtmachi xizmati” DUK (S.Mamatqulov), “Suv ta’minoti va oqova suv obyektlari qurilishi bo‘yicha injiniring kompaniyasi” UK viloyat hududiy boshqarmasi (S.Ziyadullayev), “Yagona buyurtmachi xizmati” DUK (A.Ilmuratov), tuman elektr tarmoqlari korxonasi (U.Isaqulov), “Hududgaz Samarqand” gaz ta’minoti Payariq tuman filiali (I.Qodirov) g‘olib mahallalar (qishloqlar) aniqlangandan so‘ng bir hafta muddatda mazkur mahallalar (qishloqlar) hududida xo‘jalik birlashmalari, aholi va tashabbuskor tadbirkorlar mablag‘lari, homiylik xayriyalari, tijorat banklari kreditlari va qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladigan qurilish-ta’mirlash va obodonlashtirish ishlarining manzilli ro‘yxatini yuqorida ko‘rsatilgan korxona va tashkilotlar bilan kelishilgan holda tuman hokimligiga kiritsin.

5. Tuman hokimining o‘rinbosarlari (U.Ollanov, H.Bolibekov), tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (K.Narimanov), manzilli ro‘yxatni tasdiqlash uchun Samarqand viloyat hokimligiga kiritsin.

6. Tuman hokimining o‘rinbosarlari (U.Ollanov, H.Bolibekov), tuman

qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (U.Quvatov), tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (K.Narimanov) bir oy muddatda g‘olib mahalla (qishloq)ning bosh reja sxemalari, batafsil rejalashtirish loyihalari hamda mahalla va qishloqlar markazining zamonaviy qiyofasi loyihalarining loyiha tashkilotlari tomonidan ishlab chiqilishini va ular bilan bog‘liq tadbirlar tegishli mahalliy byudjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilishini ta’minlasin.

7. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (U.Ollanov), tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (K.Narimanov):

tuman hokimining o‘rinbosari (H.Bolibekov) bilan birgalikda har oy yakuni bo‘yicha dasturlar doirasida bajarilgan ishlar va moliyalashtirilgan mablag‘lar yuzasidan iqtisodiyot va moliya boshqarmasiga hisobot berib borilishini ta’minlasin;

tuman hokimligi axborot xizmati (D.Hamidov) bilan birgalikda har chorak yakuni bo‘yicha keyingi oyning 25-sanasiga qadar jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan dasturlar tadbirlarini moliyalashtirish bo‘yicha ma’lumotlarni tuman hokimligi rasmiy veb-sayti va “Ochiq byudjet” axborot portaliga joylashtirib borsin.

8. Belgilansinki:

viloyat qurilish sohasida hududiy nazorat inspeksiyasi (Z.Jumanov), yo‘l-qurilish ishlari sifatini nazorat qilish inspeksiyasi viloyat bo‘limi (X.Musurmonov) – dasturlar doirasida amalga oshiriladigan qurilish-ta’mirlash ishlarining sifati, shaharsozlik faoliyatini texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga rioya etilishi yuzasidan davlat arxitektura- qurilish nazoratini;

viloyat Davlat moliyaviy nazorati boshqarmasi (A.Xatamov) – dasturlar doirasida ajratilayotgan mablag‘larning maqsadli va samarali ishlatilishi yuzasidan tizimli davlat moliyaviy nazoratini amalga oshiradi.

9. “Payariq hayoti” gazetasi tahririyati (A.Tavbayev) dasturlardagi tadbirlar orqali aholi uchun munosib turmush sharoitini yaratish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritib

borish tavsiya etilsin.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari H.Bolibekov zimmasiga yuklatilsin.

**Tuman hokimi** **Z.Ergashev**